**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"

Rektor G.Rixsiyeva ____________

202_ yil "___" ____________

# O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA MAMLAKATLARI IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATI (XXR) FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 - Biznes boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 - Biznes va boshqaruv |
| **Mutaxassislik:** | 70411801– Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) |

Toshkent 2021

| 9. | **Taqrizchilar:** | |
|---|---|---|
| | B.B.Valiyev | – TDShU "Xitoy tarixi. madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n. |
| | G.P.G'ulomova | – O'zbekiston xalqaro Islom Akademiyasi "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.n. |



| **Fan/modul kodi** OMIIS104 | **O'quv yili** 2020-2021 | **Semestr** 2 | **ECTS - Kreditlar** 4 | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** majburiy | **Ta'lim tili** O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari** 4 | |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Ja'mi yuklama (soat)** |
| | O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosati | 60 | 60 | 120 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosati - tushunchasining mohiyati; ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning maqsadi, vazifalari va tamoyillari; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlari, sub'ektlari, modellari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fannining vazifasi – ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning nazariy jihatlarini, chuqur o'rganib chiqish, mintaqa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning tarkibini aniqlash va mamlakatlar kesimida tahlil etish; mazkur jarayonning transformatsiyasi yo'nalishlarini anglash; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalarini tahlil etish; o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning jahon tajribasini tadqiq etish; Osiyo yirik mamlakatlari Xitoy, Hindiston va JShO mintaqasi mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari va davlat siyosatini tahlil etish; o'z fikr-mulohaza va xulosalarini asosli tarzda mustaqil va aniq bayon eta olish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu: Fanning maqsad va vazifalari.**

Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning mohiyati va uning .mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni.

**2-Mavzu: Shimoliy-Sharqiy Osiyo, Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqalarining jahon iqtisodiyotidagi roli**

Shimoliy-Sharqiy Osiyo, Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqalari mamlakatlarining iqtisodiy differensiatsiyasi. Mazkur mintaqa mamlakatlari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi.

| | |
|---|---|
| | **3-Mavzu:Mintaqa mamlakatlaridagi integratsion jarayonlarning xususiyatlari**<br>ATES, ASEAN, ASEAN+3, tashkilotlarining iqtisodiy integratsiya xususiyatlari. Mintaqalarda mazkur jarayonlarning chuqurlashuvi.<br><br>**4-Mavzu:Mintaqadagi rivojlanayotgan mamlakatlarning ilmiy-texnik hamkorliklari.**<br>Mintaqa mamlakatlarining texnologik lider davlatlari va ularning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.<br><br>**5-Mavzu: JShO mintaqasida iqtisodiy integratsiya modelining xususiyatlari**<br>Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida iqtisodiy integratsiya jarayonining xususiyatlari. Mintaqa mamlakatlari: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar orasidagi mavjud tafovutlar.<br><br>**6-Mavzu:Yangi Industrial mamlakatlarning (JShO mintaqasi) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.**<br>Janubiy Sharqiy Osiyo (JShO) mamlakatlarining iqtisodiy o'sish omillari. JShO mamlakatlaridagi investitsion siyosat va uning o'ziga xosligi.<br><br>**7-Mavzu: Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasidagi alohida mamlakatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlaniiga umumiy tasnif**<br>Singapur ijtimoy–iqtisodiy rivojlanish bosqichlari. Filippin ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi. V'etnam ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari: yutuq va kamchiliklari.<br><br>**8-Mavzu: Malayziya va Taylandning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari**<br>Malayziyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasi. Tailandning ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari.<br><br>**9-Mavzu: Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati.**<br>Hindiston-Janubiy Osiyo mintaqasidagi yetakchi davlat sifatida. Hindiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.<br><br>**10-Mavzu:Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida xorijiy sarmoyalarning ro'li**<br>Hindiston iqtisodiyotida chet el sarmoyalari.Hindiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar yo'nalishlari. JO mintaqasi boshqa (Pokiston, Shri-Lanka, Nepal Butan) mamlakatlarining ijtimoiy siyosati xususiyatlari.<br><br>**11-Mavzu: Shimoliy Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining ijtimoiy rivojlanish holatiga umumiy tasnif**<br>Xitoy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Tayvan va |



| | |
|---|---|
| | • guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilishi uchun |
| 5. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Sadibekova B.D. Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamjakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy siyosat. O'quv qo'llanma. T., 2013, 97 b.<br>2.Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma, 1,2,3 qismlar, O'zdavmatbuot LITI, T., 2011y.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>4.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.<br>5.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. –56 b.<br>6.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.<br>7.Бергер Я.Г. Экономическая стратегия Китая /Я.М. Бергер – М.: ИД "Форум", 2009. 574 с.<br><br>**Axborot manbaalari**<br>8.www.bizbook.ru<br>9.www.wesmirbook.ru.<br>10.www.cer.ru.<br>11.www.gov.uz.<br>12.market.yandex.ru.catalog.xml.<br>13.www.wto.org<br>14.www.worldbank.org<br>15.www.finansy.ru<br>16.econos.narod.ru<br>17. portal.rea.ru<br>18.www.gov.uz<br>19.www.bilim. uz<br>20.www.ziyonet. uz |
| 7. | O'quv dasturi "Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" –sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan / modul uchun ma'sullar:**<br>B.D. Sadibekova – TDSHU, "Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi; |

- O'rganilayotgan mintaqaning davlat – siyosiy tizimlari;
- O'rganilayotgan mintaqa xo'jaliklarini iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlari;
- O'rganilayotgan mintaqa ijtimoiy – iqtisodiy hayotini kompleks tadqiqot qilish usullari;
- Iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar;
- Jahon xo'jaligining asosiy nazariyalari;
- O'rganilayotgan mintaqa iqtisodining qonunchiligi va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari;
- O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlari rivjlanishining asosiy yo'nalishlari va ulardagi iqtisodiy o'sishining o'ziga xos xususiyatlari;
- Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'rni va ro'li;
- Umumlashtirish usullari, yig'ish va iqtisodiy (statistik) ma'lumotlarni tizimga solish;
- O'zbekiston sharoitida va boshqa turli Shimoliy hamda Janubiy Sharqiy Jsiyo mamlakatlaridagi ishlab chiqarish kuchlari, yalpi milliy mahsulot va milliy daromadni hisoblash usullari;
- O'rganilayotgan mintaqamamlakatlarida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarinitahliletish;
- O'rganilayotgan xorijiy mamlakatlar va mintaqalarning sanoati, qishloq xo'jalik sektori, xizmat ko'rsatish sohalari hamda tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlanish xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining asoslari, asosiy iqtisodiy mintaqalar va jahon xo'jaligi bilan bog'liqligi;
- Yirik mintaqaviy tashkilotlarda o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarining o'rni;
- Zamonaviy iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining iqtisodiy tahlil usullari;
- Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar;
- Zamonaviy bank – moliya, kredit munosabatlari nazariyasi va amaliyoti;
- Xalqaro munosabatlar tizimida Xitoyning o'rni haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Xulosa va baholarni umumlashtirish uchun o'rganilayotgan mintaqaning ijtimoiy – iqtisodiy hayotining kompleks tadqiqot natijasidan foydalanish;
- Turli yozma materiallar va ular asosidagi manbalardan foydalanish, ilmiy ma'lumotlarni yig'ishda asosiy usullardan foydalanish;
- Mintaqashunoslik (mamlakatshunoslik) ning tor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot usullari va amaliy faoliyat ko'nikmalari, hamda o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarining tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati, tili, ijtimoiy va siyosiy muammoalari to'g'risida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;
- O'rganilayotgan mintaqaning iqtisodiy muammolari bo'yicha tahliliy materiallarbilan ishlash;
- O'rganilayotgan mintaqaning ijtimoiy – iqtisodiy siyosatlarini erkin holda o'zlashtirish va umumlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;
- Xitoy, Yaponiya, Janubiy va JShO mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini asoslashda tahliliy materiallardan foydalana olish; Xitoy, Yaponiya, Janubiy va JShO mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish malakalariga ***ega bo'lishi kerak.***

4. **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-studylar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);



Gonkongning ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari hamda zamonaviy ijtimoiy siyosatlari

**12-Mavzu: Koreya Respublikasining ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari**

Koreya Respublikasining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va uning ijtimoiy siyosatini mohiyati. Koreya Respublikasining zamonaviy ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari.

**13-Mavzu:Mongoliya ijtimoiy siyosatining yo'nalishlari**

Mongoliya ijtimoiy rivojlanish dasturlari va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Mongoliyaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

**14-Mavzu:Yaponiya ijtimoiy siyosati va uning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari**

Yaponiyada davlatning ijtimoiy dasturlarini moliyalash manbalari. Yaponiya pensiya tizimi xususiyatlari va uning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos tomonlari.

**15-Mavzu:O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish - uning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari.O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integrallashuvining asosiy rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini mohiyati. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solinishi.

**III.Amaliy mashg'ulotlar boyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni.
2.Shimoliy-Sharqiy Osiyo, Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqalarining jahon iqtisodiyotidagi ro'li hamda o'rni
3.Mintaqa mamlakatlaridagi integratsion jarayonlarning xususiyatlari
4.Mintaqadagi rivojlanayotgan mamlakatlarning ilmiy-texnik hamkorliklari.
5.JShOda iqtisodiy integratsiya modelining xususiyatlari
6.Yangi Industrial Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari
7.Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasidagi alohida mamlakatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlaniiga umumiy tasnif
8.JSHO mintaqasi mamlakatlarini ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari
9.Indoneziya va Bruneyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari
10.Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatining mohiyati
11.Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishiga xorijiy

sarmoyalarning ta'siri.
12.Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida qashshoqlik muammosi va uni pasaytirish chora tadbirlari.
13.Shimoliy Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining ijtimoiy rivojlanish dasturlari va ularni moliyalash manbalari.
14.Yaponiya zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xusisiyatlari.
15.O'zbekiston Respublikasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Amaliy mashg'ulotlar mul`timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV.Kurs ishlari uchun quyidagi taxminiy mavzular tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari
3. Kombodja ijtimoy–iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari
4. O'zbekiston Respublikasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari
5. Mongoliya ijtimoiy siyosati yo'nalishlari va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari
6. Shri-Lankaning ijtimoiy siyosati xususiyatlari va strategiyasi.
7. Tayvan va Gonkongning ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini va o'xshash tomonlarini taxlil qiling
8. Koreya Respublikasi va KXDR (Shimoliy Koreya) ning ijtimoiy siyosatidagi farq va tafovutlari
9. Nepal va Butan mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari hamda rivojlanish omillari
10. Vyetnam ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari: yutuq va kamchiliklari
11. Filippin ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi
12. Singapur zamonaviy ijtimoy siyosatining o'ziga xosligi.
13. Yaponiyaning zamonaviy ijtimoiy siyosati va uning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari.
14. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integrallashuvi.
15. Koronovirus pandemiyasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ta'siri.

**V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1.1997-98 yillar, 2008 yillar va 2019-20-yillardagi Jahon va Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy inqirozlarning xususiyatlari.
2.ASEAN+Xitoy integratsion jarayonning rivojlanish xususiyatlari



3.JShO mamlakatlari iqtisodiyotiga jalb etilgan sarmoyalarda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning hissalari.
4.JShO mamlakatlarining o'zaro savdo aloqalarining rivojlanish dinamikasi va ularning mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri.
5.ATES mamlakatlarining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va ularning sammitlari taxlili
6.JShO mamlakatlarining Markaziy Osiyo davlatlari bilan investitsion hamkorliklari yo'nalishlari.
7JShO mamlakatlarining sanoatlashtirish siyosati xususiyatlari.
8.Xitoy va Yaponiya iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonlarida davlatning ro'li.
9.JShO mamlakatlari iqtisodiyoida yapon investisiyalarining o'rni va ro'li.
10.V'etnamning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari
11.Myanma va Laosning iqtisodiy rivojlanish shart- sharoitlari va ularda aholini ijtimoiy himoyalash dasturlarini amalga oshirilishi.
12.Xitoyning zamonaviy iqtisodiy o'sish omillari va unda aholini ijtimoiy sug'urtalash dasturlarini amalga oshirilish xususiyatlari.
13.JShO mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.
14.Pandemiya sharoitida jahon iqtisodiyotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirilishi (ASEAN mamlakatlari misolida).
15.Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion omillari va ularni mamlakat ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri.
16.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari.
17.O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integrallashuvining asosiy rivojlanish bosqichlari.
18.O'zbekiston Respublikasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari
19.Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion omili ustuvorligi nuqtai nazaridan, mamlakatni mehnat salohiyatining sifatiga baho bering
20.JShO doirasida yapon investisiyalari harakatining asosiy yo'nalishini aniqlang.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, analitik obzorlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

"O'rganilayotgan mintaqamamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosati" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- O'rganilayotgan mintaqa iqtisodining shakllanish va rivojlanish shart – sharoitlarini, omillarini va ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi muhitning asosiy belgilarini;
- O'rganilayotgan mintaqa tillari bilan kundalik, malakali, ijtimoiy – siyosiy, huquqiy – boshqaruv, ijtimoiy – ma'daniy muomala sohalarida so'zlashuv faoliyati ko'nikmasi;
- O'rganilayotgan mintaqa aholisining milliy – etnik va ijtimoiy tarkiblari;